

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIV VA
TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH: PEDAGOGIK
TAYYORLIKDA YANGI YONDASHUVLAR**

Muxlisa Jumayeva Shokir qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E- mail: jumayevamuxlisa40@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Pedagogik tayyorgarlikda yangi yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlanadi, ayniqsa, innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatlari qanday rivojlanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Maqolada bo'lajak pedagoglarning o'quv jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar va amaliy usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik jarayonlarda zamonaviy texnologiyalarning roli va o'qituvchilarni tayyorlashda yangi yondashuvlar bilan bog'liq tavsiyalar taqdim etiladi.

Tayanch tushunchalar: kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, pedagogik tayyorgarlik, yangi yondashuvlar, innovatsion metodlar.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы развития креативных и критических мыслительных способностей будущих учителей начальных классов. Подчеркивается важность новых подходов в педагогической подготовке, в частности, использование инновационных педагогических методов и технологий для развития этих способностей. В работе анализируются методики и практические способы развития креативного и критического мышления в учебном процессе будущих педагогов. Также рассматривается роль современных технологий в педагогическом процессе и предлагаются рекомендации по внедрению новых подходов в подготовку учителей.

Ключевые понятия: креативное мышление, критическое мышление, педагогическая подготовка, новые подходы, инновационные методы.

Annotation

This article explores the development of creative and critical thinking skills in future primary school teachers. It emphasizes the importance of new approaches in pedagogical training, specifically how innovative teaching methods and technologies can foster the growth of these skills. The article analyzes methodologies and practical techniques aimed at enhancing creative and critical thinking in future educators' training. It also discusses the role of modern technologies in the educational process and offers recommendations for integrating new approaches into teacher preparation.

Key words: creative thinking, critical thinking, pedagogical training, new approaches, innovative methods.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilardan javoblar uchun juda batafsil tafsilotlarni bilish lozim. Agar ma'lum bir javobni taklif qiladigan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi unga fikr bildirishga qiynalsa, o'qituvchi bu javobga munosabatini bilish kerak. Bunday holda, agar bir xil muammoli savolga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar turli xil taklif qilsalar javoblar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning javoblarni solishtirishga qaratilgan fikrlash harakatlarini tashkil yetish kerak. Bunday fikrlash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ishi juda murakkab, u hamma narsani tushunishni o'z ichiga oladi bildirilgan fikrlar, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash (ya'ni tanqid qilish), to'g'ri javobni topish uchun tanqidni hisobga olgan holda turli nuqtai nazarlarni o'zaro bog'lash. Muammoli savolga javob qidirishni tashkil qilish, quyidagi ketma-ket qadamlar asosida bajarilishi lozim:

savollarga javob topish va asoslash bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning aqliy harakatlarini tashkil yetish; javoblarni kreativ va tanqidiy tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;

muvofiqlashtirilgan pozitsiyani ishlab chiqish uchun javoblarni bir biri bilan taqqoslashni tashkil yetish-eng to'g'ri javobni yaratish;

keyingi muammoli masalani belgilashga o'tish;

o'qituvchi tomonidan tashkil yetilgan ushbu harakatlar majmuasini amalga oshirish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning fikrlashlari rivojlantirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kamolotiga yangicha nazar bilan qaralayotgan va katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda bu o'quv maqsadlari yanada katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

bilim: faktlar, atamalar, jarayonlar, tasniflar esda saqlash (eslash, nomlash, tuzatish, farqlash, takrorlash, yodlash, o'zgartirish, ma'lumot berish, tasvirlash, aytib berish);

tushunish: faktlarni tushuntirish, sharhlash, materialni izohlash qobiliyati (muhokama qilish, aniqlash, aytish, bahs yuritirish, almashtirish, aniqlash, tushuntirish, tarjima qilish);

qo'llash: bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash qobiliyati (qo'llash, hisoblash, o'zgartirish, tanlash, tasniflash, bajarish, namoyish qilish, kashf qilish, kashf qilish, tajriba o'tkazish, misol keltirish, amalda qo'llash, bog'lash, rejalashtirish, ko'rsatish, yechish, ishlatish, hisoblash);

tahlil: yaxshiroq tushunish uchun butunni qismlarga bo'lish qobiliyati (tahlil qilish, baholash, guruhlash, hisoblash, tasniflash, qiyoslash, bog'lash,

farqlash, tadqiq qilish, tajriba o'tkazish, tushuntirish, xulosalash, tuzish, shubha qilish, bog'lash, tanlash, tekshirish. O'quv-bilish faoliyat darajasini yashirin taxminlarni aniqlash, fikrlash mantig'idagi xato va kamchiliklarni ko'rish, faktlar va oqibatlarini farqlash qobiliyati);

sintez: yangi butunlikni yaratish uchun elementlarni birlashtirish qobiliyati (asosiy atamalardan foydalanish, formuladan foydalanish, shuningdek, guruhlash, jamlash, birlashtirish, tuzish, yaratish, rivojlantirish, shakllantirish, umumlashtirish, birlashtirish, ixtiro qilish, o'zgartirish, tashkil qilish, rejalashtirish, tayyorlash, taklif qilish, qayta guruhlash, qayta yozish, o'rnatish, almashtirish)

baholash: ma'lum standartlar asosida ma'lumotlarning qiymatini yoki foydalanishni baholash qobiliyati (echilgan masalani tashxizlash; avvalgi masalani yechishda kreativ va

tanqidiy nazar bilan qarab, boshqa yo'l bilan yechishni taklif etish; yechilgan masalani to'g'ri yechilganini tekshirish; yechilgan masalani to'g'ri yechilganini aniqlash.

Yu.N.Kulyutkin G.S.Suxobskaya va boshqalar, rivojlangan kasbiy refleksiyasiz, doimiy tahlil va o'z-o'zini tahlil qilishsiz o'qituvchi amaliy faoliyatda yuzaga keluvchi muammolarni chuqur anglay olmas, ularni yechish yo'llarini to'g'ri tanlay olmas, olingan natijalarni kreativ va tanqidiy baholay va ularni tuza olmas edi, deb hisoblaydilar.

Ma'lumki, o'zi to'g'risida, boshqalar to'g'risidagi bilimlar insonga tashqaridan kelmasligi, ular uning o'zida shakllanadi. Olimlar o'z qarorlarini o'zi tahlil qilishi va o'zi baholashining mezoni, shuningdek tajriba almashish jarayonida unga taklif etiladigan qarorlar refleksiya hisoblanishini va bu bo'lajak o'qituvchilarga "o'z-o'zini to'g'ri (adekvat) baholashni, nazariy tadqiqotlarda ishlab chiqiladigan bilimlarni kreativ va tanqidiy idrok etish"ga yordam berishini ta'kidlaydilar. Demak, shu tariqa, agar avval erishilgan natijalarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi o'zining avvalgi tajribasi bilan solishtirgan bo'lsa, analitik qobiliyatlari rivojlanishi bilan u o'ziga ko'proq kreativ va tanqidiy yondashgan holda o'z natijalarini tahlil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2013.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati // A.Madvaliev tahriri ostida. - Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008 yillar.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashning psixologik asoslari: Psixol. fan. dokt. ... diss. – T.: 2005. – 391 b.
4. O'rozova M.B. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. Ped. fan. dokt. diss. – T.: 2015.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati // A.Madvaliev tahriri ostida.- Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 - 2008.

6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va b. – T.: “O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

7. Ochilov M., N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 304 bet,